

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

YUNUSOVA FERUZAXON XODJIAKBAROVNA

**INGLIZ TILINI O'RGATISH JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY
KOMPETENSIYASINI MOBIL TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA
SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) in a pedagogical science**

Yunusova Feruza Xodjiakbarovna

Ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish metodikasi (iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishlari misolida)..... 3

Юнусова Ферузахон Ходжиакбаровна

Методика формирования профессиональной компетентности студентов в процессе обучения английскому языку с помощью мобильных технологий (на примере экономических направлений образования)..... 25

Yunusova Feruzakhon Khodjiakbarovna

Methodology for developing students’ professional competencies through mobile technologies in english language teaching (on the example of economic areas of education)..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

YUNUSOVA FERUZAXON XODJIAKBAROVNA

**INGLIZ TILINI O'RGATISH JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY
KOMPETENSIYASINI MOBIL TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA
SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlari misolida)**

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped5223 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimova Muxabbat Fayzievna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ximmataliyev Do‘stnazar Omonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rizkulova Kamola Djummayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49, faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

G.K. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.D. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

Sh.A. Allayorov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa fanlari (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishda shaxsga va kasbiy rivojlanishga yo'naltirilgan mobil texnologiyalarga asoslangan kompetensiyaviy tizimlar va yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida talabalarni iqtisodiyot, ijtimoiy soha, ta'lim, texnika va texnologiyalar sohasidagi innovatsiyalar bilan tanishtirish va shu asosda ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim loyihalari amalga oshirilmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida xorijiy tillarni o'qitish vositasi sifatida mobil texnologiyalardan foydalanish, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish, ta'lim tizimini modernizatsiyalash bo'yicha tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayon kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion yechimlarni ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining mazmuni, o'qitish usullari va o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirish, ta'limni amaliy faoliyat sohalari bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarda ijtimoiy, kasbiy va ijodiy vazifalarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida xorijiy davlatlar tajribalarini inobatga olib ingliz tilini o'rgatish jarayonida mobil texnologiyalar orqali talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning umumiy, xususiy va lokal, biogen, sotsiogen, psixogen texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"¹ ustivor vazifa sifatida belgilangan. Bu o'z navbatida xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2017 yil 30 iyundagi PF-5099-son "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlarida va 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 iyundagi 373-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni.

xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda chet tillarni o'qitishda talabalarining o'quv-biluv faoliyatini innovatsion metodlar asosida rivojlantirish: M.Aminov, M.Aripova, L.T. Axmedova, G.X.Bakiyeva²; chet tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, I.M.To'xtasinov³; nofilologik yo'nalishlarda tillarni o'qitish: S.K. Boymatova; mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak chet tili muallimining kasbiy-uslubiy malakalarini shakllantirish masalalari X.T.Mustafayeva, T.K. Sattarov; bojxona va soliq ta'lim yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish: G.A.Asilova va M.A.Berdiyeva⁴lar; "kompetentlik" va uning o'ziga xosligi, ilmiy-nazariy asoslari N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A.Qo'ysinov, N.N. Karimova⁵lar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar I.A. Zimnyaya, I.V. Robert, A.V. Xutorskoy, V.D. Shadrikov, N.M Lebedeva, E.V.Livskaya, A.A. Pribitkova, A.P. Sadoxin, V.V.Safonova,

² Aripova M. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. (Elektron manba) cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-itishda.; Axmedova L.T. Дистанционное обучения как инновационная образовательная технология // Материалы международной научно-практической конференции / Инновации в преподавании иностранных языков: вопросы и перспективы. - Нукус, 2019. -С. 14-16.; Бакиева Г.Х., Башатова Н.А. Использование современных методов контроля знаний языка для повышения мотивации учебной деятельности студентов. Проблемы многоуровневой подготовки специалистов и современные методы контроля знаний студентов.- Т., 1993-С.63-65.

³ Жалолов Ж.Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –368 б.; Иванова Е.В. Работа старшеклассников с различными информационными источниками. // Иностранные языки в школе 2019 - №6 - С.41.; Makhkamova G.T., Alimov Sh. S., Ziyayev A.I. Innovative pedagogical technologies in the English Language Teaching. – Т., 2017. – 232 p.; To'xtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish.: Avtoref: diss.dokt. ped. nauk. – Tashkent, 2018. - 23 b.

⁴ Boymatova S.K. Terminlarni o'rganishda tibbiyot talabalari o'rtasida o'quv va kasbiy aloqa sohasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish. -Toshkent, 1993. -48 b.; Mustafayeva H.T. Ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar fakultetlar talabalariga o'rgatishning lingvometodik xususiyatlari: ped.fan.nomzodi.-Samarqand: 2003. - 140 b.; Sattarov T.K. Mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak chet tili muallimining kasbiy-uslubiy malakalarini shakllantirish (ingliz tili materialida):Diss. ped.fan.dok. -T.: 2000. -329b.; Asilova G.A. Bojxona va soliq yo'nalishlari talabalarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish kompetensiyasini rivojlantirish (rus guruhlarida): ped. fan. doktori (Doctor of Science)... dis.-T.,2017.- 291b.; Бердиева М.А. Формирование профессиональной компетенции студентов-юристов средствами русского языка (на материале устной речи): Т.:дисс...,канд. пед. наук., 2009.-С. 168.

⁵ Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.; Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi.–T.:TDPU, 2005.– 54 b.; Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Diss.–2019, 237 b.; Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent, «Iqtisodiyot» nashriyoti, 2012 yil, 4 б.т.

T.G. Stefanenko⁶lar tomonidan olib borilgan. Raqamli ta'lim, raqamli didaktika, D.Buckingham, A.T. Tulgar, W.Richardson, D.Makkeland, H.Crompton, I.H.Fuchs⁷ kabi pedagog-psixologlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-049-raqamli "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi grant loyiha doirasida bajarilgan (2017-2021 yy.).

Tadqiqotning maqsadi ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz tilini o'rgatish jarayonida mobil texnologiyalari yordamida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasining didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

mobil texnologiyalari yordamida talabalarning ingliz tilidan nutq qobiliyatlari va til ko'nikmalari shakllantirish modelini takomillashtirish;

ingliz tilini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishning metodikasini takomillashtirish;

ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalar yordamida shakllantirish metodikasi takomillashtirish jarayoni bo'lib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutlarining Iqtisodiyot va Raqamli iqtisodiyot ta'lim yo'nalishlarining 1 va 2-kurs talabalaridan jami 405 nafar respondentlar ishtirok etgan.

⁶ Зимняя, И. А. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки спец., 2004.; Роберт И.В. Информация и информационное взаимодействие, их место и роль в современном образовании // Мир психологии. 2010. № 3. С. 54-67.; Хуторской, А. Ключевые компетенции: технология конструирования // Народное образование. 2003. - №5. - С.55-61.; Шадриков В.Д. Интеллектуальные операции. М.: Логос, 2006.-С. 108.; Лебедев О.Е. Компетентностный подход в образовании // Школьные технологии.-2004. №5. С.3-12.; Ливская Е.В. Мобильное обучение иностранному языку: Теория, методология и практика внедрения в вузы // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2013. № 1. С. 199-202.; Прибыткова А.А. Методика формирования навыков произношения у студентов на основе мультимедийных программ (английский язык); Дис. ... канд. пед. наук. Москва: МГГУ, 2013.; Садохин А.П. Этнология: Учебник для вузов по гуманит. спец-тям и напр. / А.П. Садохин, Т.Г. Грушевицкая. М.: Academia, 2001. - С.303.; Сафонова В.В. Коммуникативная компетенция: современные подходы к многоуровневому описанию в методических целях / О чем спорят в языковой педагогике. М.: Евро школа, 2004.-С. 234.; Стефаненко Т.Г. Этническое самосознание, этничность, этническая идентичность -соотношение и содержание понятий // Теоретические проблемы этнической и кросс-культурной психологии: материалы Международной научной конференции, 29-30 мая 2008 г.: в 2 т. Т. 2 / отв. ред. В.В. Гриценко. Смоленск: Универсум, 2008. С. 172-182.

⁷ D.Buckingham. Defining digital literacy – What do young people need to know about digital media? Nordic Journal of Digital Literacy; (2006).; Tulgar A.T. The role of pragmatic competence in foreign language education // Turkish Online Journal of English Language Teaching (TOJELT). 2016. Vol.1(1). - Pp.10–19.; Richardson W. Weblogs in the English classroom: More than just chat // English Journal. 2003. № 3. Pp. 57-64.; D.Makkeland. Мотивация человека. СПб., 2007.; Crompton H. A historical overview of mobile learning: Toward learner-centered education. In Z. L. Berge & L. Y. Muilenburg (Eds.), Handbook of mobile learning (pp. 3-14). Florence, KY: Routledge, 2013.; I.H Fuchs. Prospects and possibilities of the Digital Age (Philosophy, communications technology), March 2001. Proceedings of the American Philosophical Societyheld at Philadelphia for promoting useful knowledge. Vol.145(1): Pp. 45-53

Tadqiqotning predmeti ingliz tilini o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish metodikasini takomillashtirish shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy ta’lim muassasalaridagi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, muammoga oid ilmiy adabiyotlar, maqsadli pedagogik kuzatish usuli, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat, test); pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari sinxron va asinxron aloqa ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan kognitiv faoliyat trayektoriyasini prognostik shakllantirish hamda interaktiv didaktik resurslardan foydalanish natijadorligini uzluksiz oshirib borish asosida aniqlashtirilgan;

ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish modeli mobil podkastlar, blog texnologiyasi va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning integrativ xususiyatlarini ta’limiy maqsadlar mazmuniga uyg‘unlashtirish hamda real hayotdagi doimiy aloqalarga mos tarzda yangi didaktik maqsadlarni til va tahlil yaxlitligini maqsadli belgilash asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish mazmuni moslashuvchan-kommunikativ madaniyat va kasbiy ko‘nikmalarni nostandart vaziyatlarda shaxsiy ehtiyojlarning regulyativ o‘quv harakatlarining subyekt-subyekt munosabatlarida namoyon bo‘lishiga ko‘ra tahliliy aniqlash asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning kasbiy umumiy kommunikativ qobiliyatlar integratsiyasini ta’minlashda teskari aloqani amalga oshirishga ustuvorlik berish hamda axborotlarni qayta ishlash mobilligini oshirishning kognitiv mazmunli dasturiy–faol infratuzilmasiga intensiv faoliyatning vizual-simulyativ ta’sirini oshirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilini o‘rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish bo‘yicha kasbiy sohada ingliz tilidan amaliy egallash, talabani rivojlantirish, sohaga oid adabiyotlarni tarjima qilish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish, amaliy va nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishga qaratilgan iqtisodiyot yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalari uchun mo‘ljallangan “Basic Business English Grammar” va Xorijiy til “English for Accounting and Finance” o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan;

terminologiyani o‘rgatish, realistik kommunikativ ssenariylar yaratish, interaktiv lug‘at hamda keys-stadi modullarini o‘z ichiga olgan, kontentni talabalarning individual ehtiyojlariga moslab taqdim etuvchi “Mobile English for Accounting and Finance” mobil ilovasi ishlab chiqilgan;

ingliz tilini o‘rgatishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarda ingliz tilini

o'qitishning metodik ta'minoti yaratilgan va mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini oshirish maqsadida ular uchun dalillarga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Amalga oshirilgan yondashuvlar va usullar, foydalanilgan nazariy va amaliy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ingliz tilini o'rgatish jarayonida iqtisodchi talabaning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari hamda analitik va eksperimental ishlanmalarning samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslangani, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ingliz tilini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan muayyan pedagogik faoliyat, kasbiy kompetensiyalar darajasini baholovchi mezonlar, mobil texnologiyalari yordamida talabalarga ingliz tilini o'qitish, kasbiy kompetensiya dasturi bo'yicha o'qiyotgan iqtisodchi talabalarning til va nutq qobiliyatlarini baholashni, takomillashtirilgan jarayon modelini amaliyotda qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan ingliz tilini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalar yordamida shakllantirishga qaratilgan o'quv-tarbiya jarayonida, ushbu tadqiqot natijalarini ingliz tillari bo'yicha o'quv qo'llanmalari, kurslar va mualliflik dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, ingliz tillarini o'qitish metodikasi kurslarida qo'llash mumkinligi; seminar mashg'ulotlari, ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida o'qitishda, intensiv kurslarda, o'quv-uslubiy qo'llanma hamda darsliklarni yaratishda, tarjima lug'atlari tuzishda ingliz tili faniga doir fan va o'quv dasturlarini takomillashtirishda keng foydalanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini o'qitishda talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalar asosida shakllantirishga oid tadqiqot bo'yicha olingan natijalar:

ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari sinxron va asinxron aloqa ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan kognitiv faoliyat trayektoriyasini prognostik shakllantirish hamda interaktiv didaktik resurslardan foydalanish natijadorligini uzluksiz oshirib borish asosida aniqlashtirish bo'yicha tavsiyalar "Basic business english grammar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagi "356"-sonli buyrug'iga asosan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarni oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga pedagogik moslashishining ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillari takomillashtirishga erishilgan;

ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish modeli mobil podkastlar, blog texnologiyasi va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning integrativ xususiyatlarini ta'limiy maqsadlar mazmuniga uyg'unlashtirish hamda real hayotdagi doimiy

aloqalarga mos tarzda yangi didaktik maqsadlarni til va tahlil yaxlitligini maqsadli belgilash asosida takomillashtirilgan ma'lumotlar "Xorijiy til (English for Accounting and Finance)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023 yil 28 avgustdagi "272"-sonli buyrug'iga asosan berilgan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning kasbiy AKT kompetensiyasi, shaxsiy-faoliyat yondashuvi asosida ingliz tillarini o'qitishni tashkil etish imkoniyatlari takomillashtirilgan;

ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish mazmuni moslashuvchan-kommunikativ madaniyat va kasbiy ko'nikmalarni nostandart vaziyatlarda shaxsiy ehtiyojlarning regulativ o'quv harakatlarining subyekt-subyekt munosabatlarida namoyon bo'lishiga ko'ra tahliliy aniqlashga oid taklif va tavsiyalar "Basic business english grammar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagi "356"-sonli buyrug'iga asosan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlanish darajasini diagnostikalash asosida takomillashtirilgan;

ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy umumiy kommunikativ qobiliyatlar integratsiyasini ta'minlashda teskari aloqani amalga oshirishga ustuvorlik berish hamda axborotlarni qayta ishlash mobilligini oshirishning kognitiv mazmunli dasturiy-faol infratuzilmasiga intensiv faoliyatning vizual-simulyativ ta'sirini oshirish asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Xorijiy til (English for Accounting and Finance)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan. (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023 yil 28 avgustdagi "272"-sonli buyrug'iga asosan berilgan o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi: 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda tadqiqot natijalari muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ilmiy mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy-metodik ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati,

natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda mobil texnologiyalarning didaktik xususiyatlari va uslubiy funksiyalari, mobil texnologiyalar ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish vositasi sifatida, ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilning 29 oktyabrida PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to'liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

Jahon miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda tadqiq qilinayotgan chet tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati bilan hamohang ravishda o'rganish, o'quv jarayoniga madaniyatshunoslik va kompetensiyaviy yondashuvni joriy qilish, chet tillarini o'rganishning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'lim mazmunini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlarning tahlili “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini farqlash zarurligini ko'rsatdi, ilmiy nashrlarda va maxsus tadqiqotlarda kompetensiya – bu inson tomonidan muayyan bir faoliyatning amalga oshirilishini ta'minlovchi uning maqsadlari, qadriyatlarini, motivlari, shaxsiy sifatlarini, bilimlari, malakalari, ko'nikmalari, qobiliyatlarini va tajribalari tizimi, kompetentlik esa, amaliyotda namoyon bo'lgan va insonning amaliy faoliyat texnologiyalarini egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy sifatlarini rivoji bilan bog'liq tavsiflanuvchi kompetensiyasi hisoblanadi⁸.

Shaxsning kompetensiyasi – bu “shaxs o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlarga ega bo'lgan masalalar majmuasidir”⁹. Bu inson uchun ma'lum maqsadlarga erishish uchun zarur bo'ladi. “Kompetensiya” tushunchasi biror narsani hukm qilish imkoniyatini beradigan malaka, bilimga egalik sifatida talqin etiladi; har qanday sohada chuqur bilimga ega bo'lgan va fikri salmoqli, obro'li shaxs sifati nazarda tutiladi.

K.J. Risqulovning fikriga ko'ra, “Kompetensiya” u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi. Kompetentlik esa - shaxs amaliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir¹⁰. N.S.Rozovning fikricha,

⁸ Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.

⁹ Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullayeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. –T., 2014.

¹⁰ Risqulova K.J. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sosiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi. Ped. fan. dokt. ... diss.avtoref., Toshkent, 2017, 40 b.

kompetentlik tushunchasi shunday qurilganki, u bir tomondan insonning bilimi va amaliyoti bilan bog‘liq yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni o‘zlashtira oladi, ikkinchi tomondan esa, bu har bir profil turi, ta‘lim tizimi darajasi uchun ta‘lim talablarini aniqlash imkonini beradi. Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq turli xil vazifalarni talabning shaxsiy fazilatlarini ishlab chiqilgan majmuasi sifatida belgilash mumkin. N.A.Muslimov va boshqa tadqiqotchilar kompetentlik tushunchalariga rioya qilgan holda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan, texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalarini kasbiy kompetentligini shaxs fazilatlarini birlashtirishni tashkil etish sifatida, keyinchalik ularga muhandislik faoliyatida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda yordam beradi, deb ta‘kidlagan.

Bugungi kunda mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarda “mobil ta‘lim” tushunchasining turli ta‘riflari mavjud bo‘lib, ularning barchasini shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhning ta‘riflari faqat o‘quv vositalarining texnologik tomoniga qaratilgan. Ular, birinchi navbatda, ba‘zi me‘yoriy hujjatlarda, shuningdek, mobil texnologiyalar va dasturiy ta‘minotni ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning reklama va axborot resurslarida berilgan. D.V. Pogulyaev tadqiqotida mobil ta‘limni “mobil kompyuter texnologiyalari va simsiz aloqadan foydalanish asosida o‘quv jarayonini tashkil etish shakli”¹¹ deb ta‘riflaydi.

Ta‘riflarning birinchi guruhi faqat mobil texnologiyalar imkoniyatlarining texnologik tomonini aks ettiradi; o‘quv jarayonini amalga oshirish mumkin bo‘lgan mobil aloqa texnologiyalarini ro‘yxatlashda bir-biridan farq qiladi; bundan tashqari, pedagogik jihatlarni o‘z ichiga olmaydi. Biroq, bu ta‘riflar ikkita asosiy nuqta bilan birlashtirilgan: a) mobil ta‘lim – bu mobil portativ texnologiyalar asosida o‘rganish; b) mobil ta‘lim – internetga kirish. Aynan shu ikki texnologik omil mamalakatimizda hamda, dunyoning ko‘plab boshqa mamlakatlarida keng qo‘llaniladigan mobil ta‘lim va masofaviy ta‘limning boshqa turlari o‘rtasidagi asosiy farqlarni aniqlaydi. Bugungi kunda “mobil ta‘lim” atamasi ta‘riflarining ikkinchi guruhi, albatta, konsepsiyaning texnologik jihatiga qaratilgan. Bu erda o‘quv jarayonining pedagogik tomoni katta ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan. Xususan, V.A.Kuklev mobil ta‘limni “vaqt va joydan mustaqil ravishda, fanlararo va modulli yondashuvlarning pedagogik asosida maxsus dasturlardan va mobil texnologiyalardan foydalangan holda elektron ta‘lim”¹² deb ta‘riflaydi.

Ingliz tilini mobil o‘rganish – bu mobil aloqa vositalaridan (smartfonlar, planshet, kompyuterlar va boshqalar) foydalanishga asoslangan o‘rganish va boshqarish jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, unda talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishlari va takomillashtirishlari, nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishlari (sinxron va asinxron aloqa vositalari asosida), chet tilidan ijtimoiy, maishiy va kasbiy sohalarda aloqa vositasi sifatida foydalanish uchun ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishlari mumkin. Birinchi eng keng tarqalgan texnologiya – bu elektron pochta yoki elektron pochta guruhi hisoblanadi. Elektron pochta didaktik

¹¹ Погуляев Д.В. Возможности применения мобильных технологий в учебном процессе // Прикладная информатика. 2006. №5. С.80-84.

¹² Куклев В.А. Мобильное обучение завтра? Уже сегодня.(Is Mobile education Tomorrow? It is now) // университетская книга. 2007. №3

xususiyatlariga matn va boshqa ma'lumotlarni bir yoki bir nechta foydalanuvchilarga uzatish, qabul qilingan ma'lumotlarni qattiq diskda (matn, grafik, audio, video) saqlash qobiliyati kiradi. Hozirgi kunda keng qo'llanilgan ikkinchi texnologiya – bu blog texnologiyasi hisoblanadi. Blog – bu foydalanuvchining kundalik yoki jurnal ko'rinishidagi internetdagi shaxsiy sahifasidir. So'nggi yillardagi bir qator uslubiy adabiyotlarda oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda blog texnologiyasidan foydalanish bo'yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud. Blog texnologiyasining didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi: ingliz tilidan matn va grafik ma'lumotlar, audio va video materiallarni joylashtirish; joylashtirilgan ma'lumotlarga izoh berish qobiliyati; talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish; talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirish; hamkorlikda talabalarda o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish.

Uchinchi texnologiya – Viki texnologiyasidir. Viki texnologiyasi – bu bir kishiga yoki bir guruh odamlarga bir-biridan noma'lum masofada umumiy yozma (multimedia) xujjat yaratish ustida ishlashga imkon beradigan zamonaviy internet texnologiyalaridan biridir. Viki texnologiyasining didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi: a) matn va grafik ma'lumotlarni, audio va video materiallarni joylashtirish; b) talabalarga yagona tarkib yaratish ustida ishlash imkoniyati; v) talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirish; d) hamkorlikda o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish.

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili mashg'ulotlarida sinxron video va internet aloqasi vositalari o'ziga xos didaktik funksiyalarga ega: masofaviy sinxron ta'limni tashkil etish; talabalarning kognitiv faolligini rivojlantirish; hamkorlikda o'quv ko'nikmalarini rivojlantirish; talabalarning mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish. Mobil elektron lug'atlar ettinchi mobil texnologiya hisoblanadi. Ular mavjudlik, ko'p tillilik (bir tilli va ikki tilli lug'atlar mavjud), qidiruv maydonini cheklash imkoniyati (faoliyat sohasidagi cheklovlar, masalan, tibbiyot, texnologiya, iqtisodiyot, huquq) bilan ajralib turadi. Elektron lug'atlar asosida talabalarning qidiruv va tadqiqot ishlarini tashkil etish (o'qish paytida), ularning bilim faolligini rivojlantirish, hamkorlikda o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarning ingliz tilidan mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Elektron lug'atlar talabalarning leksik nutq ko'nikmalarini shakllantirish va ularning tarjima qobiliyatini shakllantirish uchun ishlatiladi. Yana bir texnologiya bu Lingvistik korpus bo'lib bu odatda ma'lum bir atribut (xronologiya, muallif, mintaqa va boshqalar) bo'yicha guruhlangan elektron ommaviy axborot vositalaridagi matnlar massivi sifatida tushuniladi. Lingvistik korpus quyidagi didaktik xususiyatlarga ega: ko'p tillilik (korpuslar turli tillarda mavjud); qidiruv natijalarining kontekstualligi; tildan foydalanish doirasini cheklash imkoniyati. Lingvistik korpus asosida talabalarning qidiruv va tadqiqot ishlarini tashkil etish, ularning kognitiv faoliyatini rivojlantirish, hamkorlikda o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarning mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish asosida didaktik xususiyatlarni, ularning ko'pchiligiga xos bo'lgan mobil texnologiyalarning didaktik funksiyalarini, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda mobil texnologiyalarning uslubiy funksiyalarini aniqlash mumkin. Ingliz

tili kursini to'ldiruvchi bunday mazmun bilan "chet tilidagi leksemalar, grammalar, sintaksislar boshqa til va madaniy jamoaning tuzilgan ma'no kvantlari sifatida qabul qilinadi".

Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rganishda iqtisodchi talabalarning mobil texnologiyalar va internet resurslaridan foydalanish masalasini o'z ichiga olgan tadqiqot uchun biz anketa usulini (yozma so'rov) tanladik. So'rovlarning afzalligi shundaki, ular boshqa yo'l bilan olinishi mumkin bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etadilar, chunki so'rov to'g'ridan-to'g'ri faoliyat mavzusiga murojaat qilishni o'z ichiga oladi va faoliyatning tashqi tomondan bevosita kuzatish uchun qulay bo'lmagan jihatlarga qaratilgan.

Dissertatsiyaning **"Ingliz tilini o'rgatish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini mobil texnologiyalari yordamida shakllantirish metodikasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tilini o'rgatish jarayonida iqtisodchi talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda mobil texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, mobil texnologiyalari yordamida ingliz tilini o'qitishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari, mobil texnologiyalar yordamida talabalarga ingliz tilini o'qitishning metodik tizimi kabilar bayon qilingan.

Bozor munosabatlari sharoitida bir yoki bir nechta tilni biladigan mutaxassislar deyarli barcha IT sohalarida ingliz tilida og'zaki va yozma kasbiy muloqotni amalga oshirish uchun etarli talabga ega. Agar zamonaviy bitiruvchi o'z mutaxassisligi tilida gapirsa, u madaniyatlararo biznes va ilmiy aloqada samarali ishtirok etishga tayyor bo'ladi, u tarjimonsiz ishlashga, xorijiy sheriklar bilan mustaqil aloqa o'rnatishga, munozarali masalalarni hal qilishga, munosib darajada muzokaralar olib borishga, o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatishga qodir bo'ladi. Kasbiy muloqot holatlarida o'z faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kelajakdagi mutaxassis kasbiy mavzular va terminologik lug'at haqida ma'lumot olishi uchun etarli darajada og'zaki nutqni yaxshi bilishi talab etiladi. Kasbiy terminologiyaga ega bo'lish "kasbiy mavzularda muloqot qilishga tayyorlikning dastlabki sharti" ekanligini hisobga olgan holda va "samarali kasbiy muloqot uchun zarur bo'lgan ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyaga erishish, uni saqlash va yanada rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga" imkon beradi.

Iqtisodchi talabalarning ta'lim sohasidagi kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, madaniyatlararo kasbiy aloqa vositasi sifatida o'qitishning asosiy maqsadi ingliz tilida til va nutq ko'nikmalarini (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) rivojlantirishni o'z ichiga olgan kasbiy kompetensiyani shakllantirishni rivojlantirishdir. Bunda talabalar muvaffaqiyatli ish joyida kasbiy faoliyatini amalga oshirish, bilim, ta'lim va hayot tajribasi, shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga keladi. Kasbiy kompetensiyaga ingliz tilidagi professional lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy, diskursiv, strategik va axborot kommunikatsiyalari kompetensiyalari hamda boshqa bir qator kompetensiyalar kiradi, bu ingliz tilidagi kasbiy kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini ko'proq rivojlantiradigan kommunikativ yondashuvdir.

Mobil ta'lim (m-learning) – bu ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyaning aspektlarini shakllantirish uchun har qanday ko'chma mobil qurilmada mobil

ilovalar va internetga kirish va har doim mavjud bo'lgan simsiz texnologiyalar bilan ixcham portativ qurilmalar yordamida ta'lim ma'lumotlari va axborot materiallarini uzatish va olishdan iborat.

Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda mobil texnologiyalarini joriy etishning maqsadga muvofiqligi talabning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda yangi imkoniyatlar bilan bog'liq, xususan: texnik mutaxassislarni jalb qilmasdan o'zini elektron ta'lim tarkibini yaratish; ingliz tilida onlayn o'quv materiallarini ishlab chiqish va erkin tarqatish; ma'lumotlarni tahrirlash va o'chirish qobiliyatiga ega bo'lgan, ta'lim maqsadlari uchun zarur bo'lgan har qanday tarmoq foydalanuvchisi uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tezda qidirish va tanlash;

talabalarning ingliz tilida o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish; auditoriyada hamda, darsdan tashqari mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida ham individual yoki jamoaviy ishlarni tashkil qilish; o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan faol aloqada bo'lish; tanqidiy fikrlash va kommunikativ madaniyat darajasini oshirish, shu jumladan, mavjud til vositalaridan foydalangan holda kasbiy mavzularda munozaralar o'tkazishni o'rganish; kasbiy muhitga moslashish, savollar berish va ushbu sohadagi mutaxassislardan javoblarni olish; kasbiy hamjamiyatning bir qismiga aylanish.

Talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga nisbatan resurslarning uslubiy va didaktik ahamiyatini muhokama qilish doirasida shuni ham ta'kidlash kerakki, mobil texnologiyalaridan foydalanish ta'limning tubdan yangi shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirishga imkon berdi, masalan: veb-darslar (vebinarlar, masofaviy darslar, veb-konferensiyalar, forumlar, seminarlar, treninglar, biznes o'yinlar, o'quv mikrobloglari, ekskursiyalar, yangiliklar lentolari, kurs ishlari, laboratoriya ishlari, seminarlar, interaktiv ma'ruzalar, ma'ruza-suhbat, ma'ruza-munozara, ma'ruza-matbuot anjumani va boshqalar); telekonferensiyalar (obunalar); videokonferensiya aloqa; chat darslari, buning natijasida o'quv jarayonida kasbiy ingliz tili haqiqatiga chuqur kirish imkoniyati yuzaga keladi. Aksariyat talabalarning mobil qurilmalarida o'quv dasturlari o'rnatilgan: ya'ni, lug'atlar va tarjimonlar, elektron kitoblarni o'qish uchun arizalar, onlayn kurslar. "Ingliz tili" fani bo'yicha nazariy materialni taqdim etish shaklini o'zgartirish orqali mobil ta'lim yordamida iqtisodchi talabalarning bilim faolligini rivojlantirish va oshirish mumkin. Bizningcha, illyustratsiyalar, 3D animatsiyalar va audio material bilan 10 daqiqadan ortiq bo'lmagan tematik video ma'ruzalar to'plami talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uchun juda samarali usullardan hisoblanadi.

O'quv jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish ko'p jihatdan talabalarning kognitiv faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi darajasiga bog'liq bo'lib, ular doimo saqlanib turishi zarur. Shu maqsadda bugungi kunda ingliz tili darslari shunday tuzilishi kerakki, har bir talaba o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'lishi va o'qituvchi uni boshqarish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lishi talab etiladi. Ilmiy adabiyotlarda "motivatsiya" tushunchasining o'zi keng ma'noda insonning fiziologik va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qilish

motivatsiyasini anglatadi, deb ko'rsatilgan. Motivatsiya psixologiya va pedagogikada inson faoliyatini tartibga solishning asosiy vositasi bo'lganligi sababli, o'rganishda motivatsiyaning roli va o'zni juda katta hisoblanadi. Ammo shuni esda tutishimiz kerakki, mutaxassislarning yosh va faoliyat turiga qarab, motivatsiyaning manbai va darajasi o'zgaradi. Masalan, o'qish uchun motivatsiya oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun alohida ahamiyatga ega, kattalar uchun esa, jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lish va munosib daromad olish motivatsiyasidir.

Oliy ta'lim muassasalarida mobil texnologiyalarini jalb qilgan holda ingliz tillarini o'qitishni tashkil etish, birinchidan, kommunikativ xarakterdagi vazifalarni noan'anaviy tarzda hal qilishga imkon beradi, ikkinchidan, loyiha faoliyati shaklidan foydalanishga yordam beradi, uning doirasida tadqiqotning faoliyati uchun motivatsiya kuchayadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonining yaxlitligi va samaradorligi uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchining roli haqida unutmazlik ham kerak. Bunday holda, o'qituvchi samarali natijaga erishishning muqobil usuliga imkon beradigan muayyan vositalarni ingliz tilida qo'llab yuqori natijaga erishishga intiladi. Ingliz tilini o'qitishda mobil texnologiyalaridan foydalangan holda o'qituvchi o'quv jarayonini, mustaqil topshiriqlarni talabalarning individual va yosh xususiyatlariga muvofiq optimallashtirishi mumkin.

Ingliz tilini o'qitishda yordamchi vosita sifatida mobil texnologiyalardan foydalanish quyidagi omillar tufayli talabalarning kognitiv faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi darajasini oshirishga yordam beradi, ya'ni; iqtisodchi talabalarni qiziqtirgan o'quv materiallarini taqdim etish shakllarining yangiligi; zamonaviy mobil texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan multimedyaning imkoniyatlari; dars va darsdan tashqari belgilangan o'quv vazifalarini bajarishda ilmiy-tadqiqot faoliyatini mustaqil yoki jamoaviy ravishda amalga oshirish; oliy ta'lim maqsadlari uchun zarur ma'lumotlarni topish samaradorligi; talabalarning individual ehtiyojlariga mos keladigan o'quv vazifalarini farqlash.

Bugungi kunda mobil texnologiyalar kutilgan natijaga erishish uchun metodik tizimga muammosiz mos keladigan samarali o'quv vositasidir. Garchi mobil texnologiyalar o'quv materiallarini almashtirmasa va o'qituvchi rolini buzmasa ham, ular ingliz tilini o'qitish metodologiyasini tubdan o'zgartiradilar. Iqtisodchi talabalarning kasbiy AKT kompetensiyasini murakkab hodisa sifatida hisobga olgan holda, unga quyidagi talablarni qo'llash kerak: talabalarda shaxsiy kompyuter, mobil qurilmalar va dasturiy ta'minotning boy imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beruvchi AKT savodxonligini shakllantirish; iqtisodchi talabalarning ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish maqsadida ingliz tilini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanish to'g'risida xabardorlik; ta'lim sifatini oshirish maqsadida ta'limda mobil texnologiyalardan etarli darajada foydalanish.

An'anaga ko'ra, tadqiqotchilar kasbiy AKT kompetensiyasining uchta darajasini ajratib ko'rsatishadi: past (asosiy), o'rta (tizimli) va yuqori (kasbiy) (1-jadval).

Iqtisodchi talabalarning kasbiy AKT kompetensiyalari darajasi¹³

Darajalar	Tavsifi
Asosiy	Iqtisodchi talabalar shaxsiy kompyuter, mobil texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish va o'quv faoliyatini rejalashtirish uchun asosiy dasturiy ta'minot bilan ishlashda asosiy ko'nikmalarga ega.
Tizimli	Talabalar o'z-o'zini o'qitish va zamonaviy AKT asosida ingliz tili fanini o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, innovatsion ishlanmalarni o'quv jarayoniga faol kiritadi, yangi bilimlarni olishga va kasbiy qiziqishlar sohasida uzluksiz rivojlanishga intiladi.
Kasbiy	Talabalar zamonaviy AKT bilan ishlash bo'yicha ilg'or ko'nikmalarga ehega, doimiy ravishda o'z malakasini oshirish bilan shug'ullanadi va AKTdan foydalanish tajribasini hamkasblari va talabalari bilan bajonidil baham ko'radi.

Biroq, ushbu va shunga o'xshash darajadagi tasniflar ba'zi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan va umuman AKT texnologiyalariga ega bo'lmagan talabalarni qaysi toifaga kiritishni nazarda tutmaydi. Qoida tariqasida, ushbu ikkala talabalar guruhi AKT ta'limi darajasi past bo'lgan guruh sifatida tasniflanadi, bu aslida qabul qilinishi mumkin emas. Talabalar tomonidan o'quv materialini tushunishni va o'qituvchi tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolarni tuzatishni ta'minlaydigan teskari aloqa tamoyilini amalga oshirish alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda mobil texnologiyalardan foydalanishning samarali metodologiyasini yaratish uchun ularni inkor etmasdan, balki bir-birini to'ldiradigan boshqa ta'lim texnologiyalari bilan qo'llash zarur bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, agar tegishli metodologiyani ishlab chiqish quyidagi psixologik-pedagogik sharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshirilsa, ingliz tilini o'qitishda mobil texnologiyalaridan foydalanish samaraliroq bo'ladi:

- 1) talabalarni mobil texnologiyalardan o'quv qo'llanma sifatida foydalanishga undash;
- 2) o'qituvchilarning mobil texnologiyalari asosida treninglar o'tkazishga tayyorligi;
- 3) talabalarning kasbiy AKT kompetensiyasi;
- 4) 4) shaxsiy-faoliyat yondashuvi asosida ingliz tillarini o'qitishni tashkil etish imkoniyati kabilar.

Ingliz tilini o'qitishning birinchi bosqichidan boshlab talabalarni mustaqil ishlashga jalb etdik va tayyorlagan mashqlar to'plamini topshiriq sifatida ularga berdik. Quyida ushbu mashqlar to'plamini keltirib o'tamiz.

Darsning maqsadi: talabalar pul tushunchasi, valyutaning turli shakllari va pulning tarixiy evolyusiyasini tushunib oladilar. Shuningdek, ular so'z boyligini oshirish va raqamli valyutalar haqida munozara yuritish bilan shug'ullanadilar. Bundan tashqari, talabalar dars davomida pul va moliya bilan bog'liq leksikani tushunish va undan foydalanishni, raqamli valyutalarning afzalliklari va kamchiliklarini muhokama qilish va tahlil qilishni, ATMdand foydalanish uchun amallar ketma-ketligini mashq qilish, hamda pulni boshqarish bilan bog'liq shaxsiy tajribalarni ulashishni o'rganadilar.


